

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR TAYYORGARLIGIDA INKLYUZIV TA’LIMNI O‘QUVCHILAR EHTIYOJLARIGA MOSLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

*Abduvaxobova Shaxnoza Mampirjon qizi  
Andijon davlat universiteti doktoranti  
Abduvaxobovashaxnoza1994@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456938>


**Annotatsiya:** mazkur tezisda inklyuziv ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida samarali pedagogik faoliyat olib borishga tayyorlash hamda ta’lim jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishning samarali usullarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun diagnostik, metodik, tashkiliy va refleksiv mexanizmlarning tizimli qo‘llanilishi zarurligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, moslashtirilgan ta’lim, pedagogik mexanizm, bo‘lajak o‘qituvchi, individual ehtiyoj

### **Kirish**

So‘nggi yillarda dunyo ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi keng rivojlanib bormoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyili — barcha o‘quvchilar, jumladan alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratishdir. Bunda ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlariga moslashtirilishi muhim ahamiyatga ega. *Ta’lim tizimlari va o‘quv dasturlari bolalarning turli xil xususiyatlari va ehtiyojlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda* ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak [UNESCO, Salamanca Statement, 1994]. Inklyuziv ta’limni amaliyotga samarali joriy etish ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash, ularning pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirish va bu tayyorgarlikning ta’lim samaradorligiga ta’sirini chuqur o‘rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. [Abduvaxobova Sh.M, 2025] Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorlash, ta’lim jarayonini moslashtirish mexanizmlarini o‘rgatish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta’lim jarayonini moslashtirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, differensial ta’lim va universal dizayn tamoyillariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlarga inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish jarayoni quyidagi grafikda berilgan:



1-

rasm. Inklyuziv ta’limni o’quvchi ehtiyojlariga moslashtirish jarayoni

Inklyuziv ta’limda individual yondashuvning o’rni juda katta. Bu yondashuv ta’limda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo’lgan moslashtirishlarni ta’minlaydi [Erimbetov, M.2025]. Moslashtirilgan ta’lim quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- ta’lim mazmunini moslashtirish;
- o’qitish metodlarini moslashtirish;
- o’quv muhitini moslashtirish;
- baholash tizimini moslashtirish.

Bu jarayon pedagogdan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik va moslashuvchanlikni talab qiladi.

Ba’zi mamlakatlarda inklyuziv ta’lim hanuzgacha nogironligi bo’lgan bolalarni umumiy ta’lim muassasalari sharoitida o’qitishga qaratilgan yondashuv sifatida talqin etiladi. Biroq xalqaro miqyosda inklyuziv ta’lim tobora kengroq mazmunda tushunilib, barcha o’quvchilarning individual xususiyatlari va xilma-xilligini qo’llab-quvvatlovchi hamda qadrllovchi muhim pedagogik tamoyil sifatida qaralmoqda [Ainscow, 2020]. Ushbu yondashuvga ko’ra, ta’lim tizimi o’quvchilarning ehtiyojlariga moslashishi, ularning individual rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’limni samarali tashkil etish uchun bir qator pedagogik mexanizmlarni tizimli ravishda qo’llash muhim hisoblanadi. Bunday mexanizmlar ta’lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish, o’quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, *diagnostik mexanizm* o’quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan pedagogik faoliyatni o’z ichiga oladi. Ushbu jarayonda pedagog o’quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, psixologik xususiyatlari, o’quv motivatsiyasi hamda ta’lim jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Diagnostika natijalari o’quv jarayonini moslashtirish, individual yondashuvni ta’minlash va samarali pedagogik strategiyalarni tanlash uchun muhim asos bo’lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, *metodik mexanizm* ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish usullari va pedagogik texnologiyalarni o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda tanlashni nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida differensial ta’lim, interfaol metodlar, kooperativ o‘qitish hamda individual topshiriqlar tizimidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning bilim olish jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi.

Uchinchidan, *tashkiliy mexanizm* ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bilan bog‘liq pedagogik va tashkiliy choralarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda o‘quv muhitini moslashtirish, o‘quv materiallarini soddalashtirish yoki modifikatsiya qilish, qo‘shimcha pedagogik yordam ko‘rsatish hamda qulay psixologik-pedagogik muhitni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, *refleksiv mexanizm* pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va takomillashtirishiga qaratilgan jarayonni ifodalaydi. O‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatining samaradorligini baholab boradi, o‘quvchilarning rivojlanish natijalarini tahlil qiladi va zarur hollarda ta’lim jarayoniga o‘zgartirishlar kiritadi. Bu esa inklyuziv ta’limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, diagnostik, metodik, tashkiliy va refleksiv mexanizmlar inklyuziv ta’limni samarali tashkil etishning muhim pedagogik asoslarini tashkil etadi. Ushbu mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi ta’lim jarayonining moslashuvchanligini ta’minlab, barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi

Bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlash jarayonida ularning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi:

- o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash qobiliyati;
- moslashtirilgan ta’lim metodlarini qo‘llash;
- inklyuziv ta’lim muhitini yaratish;
- pedagogik faoliyatni refleksiv tahlil qilish.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limga oid maxsus kurslar, amaliy mashg‘ulotlar va treninglarni tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta’limni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish ta’lim sifatini oshirish va har bir bolaning rivojlanishiga sharoit yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonni samarali amalga oshirish pedagogik mexanizmlarning tizimli qo‘llanilishini hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning inklyuziv pedagogika bo‘yicha yetarli tayyorgarligini talab etadi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim sharoitida ishlashga tayyorlash va ta’lim jarayonini moslashtirish mexanizmlarini o‘rgatish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. *UNESCO. Salamanca Statement and Framework for Action on Special Needs Education.* – Salamanca (Spain): UNESCO, 1994. – 3p
1. *Abduxobova Sh.M.* Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri // *Innovation in the Modern Education System.* – Washington, USA, 2025. – 194-b
2. *Erimbetov M.M.* Inklyuziv ta’lim sharoitida individual o‘qitishni tashkil etish // *Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti ilmiy-metodik jurnali.* – 2025. – №2. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15287372>.
3. *Promoting inclusion and equity in education: lessons from international experiences.* Nordic Journal of Studies in Educational Policy, Mel Ainscow (2020). <https://doi.org/10.1080/20020317.2020.1729587>